

Tashkil etilgan Markaz tomonidan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida quyidagi axborot tizimlar ishlab chiqilib,

- “Qurilish sifat nazorati” axborot tizimi;
- “Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi” axborot tizimi;
- “Loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza xulosalari” elektron reestri;
- “Investisiya dasturidagi ob’ektlar qurilishi monitoringi” axborot-tahliliy tizimi;
- “Qurilish sohasida davlat xizmatlari” platformasi.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida ishlab chiqilgan axborot tizimlarni respublikani barcha hududlarida 2021 yil 1 yanvar kunidan real vaqt rejimida to’liq ishga tushirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabrdagi “Qurilish sohasida axborot tizimi va geografik axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 732-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi to’g’risida Nizom, shuningdek, uni bosqichma bosqich respublikaning barcha hududlarida joriy etish va boshqa davlat organlari axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integrasiyalashuvi bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidan foydalananish bo'yicha Qurilish vazirligi va uning hududiy bo'linmalari xodimlari, Qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiyasining inspektorlari, “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK xodimlari, shuningdek, qurilish-pudrat, Yagona injiniring buyurtmachi kompaniyalar va boshqa tashkilotlar uchun maxsus o'quv-mashg'ulotlar o'tkazildi.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida ishlab chiqilgan axborot tizimlari boshqa davlat organlari axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integrasiyalashuvi amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi doirasida ishlab chiqilgan axborot tizimlar 2020 yil 20 dekabrda joriy etildi va 2021 yil 1 yanvar kunidan respublikaning barcha hududlarida ishlashi ta'minlandi.

Shu bilan birga, Qurilish sohasida loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati samaradorligini hamda natijadorligini oshirish, ular o'rtaida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, qurilish-montaj ishlari sifatini yaxshilash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 noyabrdagi “Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 699-son qaroriga muvofiq “Qurilish pudrat tashkilotlar reytingi” axborot platformasi ishlab chiqildi.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimini ishga tushirilishi natijasida qurilish sohasida:

- barcha davlat xizmatlari to’liq raqamlashtiriladi;
- hujjatlар elektron shaklda kelishiladi va qog’oz hujjatlар aylanmasi butunlay istisno etiladi;
- hujjatlarni kelishishda vaqt, mablag’ va inson resurslari tejaladi;
- elektron raqamli imzo yordamida hujjat hamda imzolovching shaxsi tasdiqlanadi;
- investisiya dasturidagi qurilish ob’ektlarining holati real vaqt rejimida kuzatib boriladi;
- qurilish ob’ektlarida nazorat jarayonlari avtomatlashtiriladi hamda raqamlashtiriladi;
- barcha zaruriy jadvallar va ma’lumotlar avtomatik tarzda shakllantiriladi;
- yagona ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi va idoralararo ma’lumot almashuvi

ta'minlanadi;

– qurilish sohasida ishbilarmonlik muhitni shakllantirish, to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash, qurilish sohasida korrupsiya va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, qurilish jarayonlarining barcha bosqichida jamoatchilik uchun shaffoflik ta'minlanadi.